



**CONTENT ANALYSIS OF THE ASSORTMENT OF
MEDICINAL PRODUCTS IN THE PHARMACEUTICAL
MARKET OF UZBEKISTAN BASED ON MEDICINAL PLANT
RAW MATERIALS WITH ANTI-INFLAMMATORY EFFECT**

Yunusova Kh.M.

Tashkent Pharmaceutical Institute

holida_222@mail.ru, <https://orcid.org/0009-0009-8489-2141>

Azimova N.A.

Tashkent Pharmaceutical Institute

ms.nargez@mail.ru, <https://orcid.org/0009-0003-7041-0996>

Nomozova E.A.

Tashkent Pharmaceutical Institute. nomozovaezoza66@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-1234-5678>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17075344>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2025

Accepted: 07th September 2025

Online: 08th September 2025

KEYWORDS

Content analysis, skin diseases, preparations based on medicinal plant raw materials with anti-inflammatory effects, assortment diversity.

ABSTRACT

The article presents the indicators of a structural content analysis of medicinal forms based on medicinal plant raw materials with anti-inflammatory effects for the period 2020–2024. Both quantitative and qualitative indicators were examined with regard to domestic, foreign, and Commonwealth of Independent States (CIS) sources. As a result of the analysis, the activities of domestic manufacturing enterprises were studied in order to expand the range of anti-inflammatory medicinal products in the pharmaceutical market of Uzbekistan.

**КОНТЕНТ-АНАЛИЗ АССОРТИМЕНТА ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ НА
ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА, СОЗДАНЫХ НА
ОСНОВЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТИТЕЛЬНОГО СЫРЬЯ С
ПРОТИВОВОСПАЛИТЕЛЬНЫМ ДЕЙСТВИЕМ**

Юнусова Х.М.

Ташкентский фармацевтический институт

holida_222@mail.ru, <https://orcid.org/0009-0009-8489-2141>

Азимова Н.А.

Ташкентский фармацевтический институт

ms.nargez@mail.ru ID <https://orcid.org/0009-0003-7041-0996>

Номозова Е.А.

Ташкентский фармацевтический институт

nomozovaezoza66@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-1234-5678>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17075344>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2025

Accepted: 07th September 2025

Online: 08th September 2025

ABSTRACT

В статье представлены показатели структурного контент-анализа лекарственных



KEYWORDS

Контент-анализ, кожные заболевания, препараты на основе лекарственного растительного сырья с противовоспалительным действием, широта ассортимента.

форм на основе лекарственного растительного сырья с противовоспалительным действием за 2020–2024 годы. При этом количественные и качественные показатели были рассмотрены по отечественным, зарубежным и странам Содружества Независимых Государств (СНГ). В результате анализа изучалась деятельность отечественных производителей с целью расширения ассортимента противовоспалительных лекарственных средств на рынке Узбекистана.

O'ZBEKISTON FARMATSEVIKA BOZORIDA YALLIG'LANISHGA QARSHI TA'SIRGA EGA DORIVOR O'SIMLIK XOMASHYOLARI ASOSIDA YARATILGAN DORI VOSITALARI ASSORTIMENTINING KONTENT TAHLILI

Yunusova X.M.

Toshkent farmatsevnika instituti

holida_222@mail.ru, <https://orcid.org/0009-0009-8489-214>

Azimova N.A.

Toshkent farmatsevnika instituti

ms.nargez@mail.ru ID, <https://orcid.org/0009-0003-7041-0996>

Nomozova E.A.

Toshkent farmatsevnika instituti

nomozovaezoza66@gmail.com. <https://orcid.org/0000-0002-1234-5678>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17075344>

ARTICLE INFO

Received: 01st September 2025

Accepted: 07th September 2025

Online: 08th September 2025

KEYWORDS

Kontent-analiz, yuz teri kasalliklari, yallig'lanishga qarshi dorivor o'simlik xom ashyosi asosidagi preparatlar, assortiment kengligi.

ABSTRACT

Maqolada yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori turlarining struktur kontent tahlili 2020-2024 yillar bo'yicha o'tkazilgan tahlil ko'rsatkichlari keltirilgan. Bunda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari mahalliy, xorijiy va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bo'yicha olib borildi. Tahlil natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarini O'zbekiston bozorida yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan dori vositalarini assortimentini kengaytirish uchun o'rganildi.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 4-yanvardagi № ZRU-399-sonli "Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, davlat tomonidan aholini sifatli va xavfsiz dori vositalari bilan ta'minlash tizimi takomillashtirilmoqda. Farmatsevtika mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va mavjudligi aholi salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega [1].



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-noyabrdagi PQ-5229-sonli "Farmatsevtika sanoatini tubdan isloh qilish choralari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, farmatsevtika faoliyatini rivojlantirish, aholining dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va tibbiyot muassasalarini sifatli farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlash maqsad qilingan [2].

Yuz teri kasalliklari, xususan yallig'lanish kasalliklari, keng tarqalgan va turli xil sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Bu kasalliklar terining asosan yallig'lanishi, infeksiya yoki allergik reaksiyalar bilan bog'liq. Yuz terisi kasalliklari ko'plab turli kasalliklar va holatlardan iborat bo'lib, ularning barchasi o'ziga xos simptomlarga va davolash usullariga ega. Ular orasida eng keng tarqalgani bu aknedir. Akne — teri ostida yog'ning ortiqcha to'planishi va terining yallig'lanishi natijasida yuzaga keladigan kasallik. U odatda yuzning T-hududi (peshona, burun, iyak) da ko'proq uchraydi. Uning kelib chiqish sabablari: gormonal o'zgarishlar, stress, noto'g'ri kosmetik vositalar, bakteriyalar [3]. Akne, terining sebaceous (yog'li) bezlari tomonidan ortiqcha yog' ishlab chiqarilishi va bu yog'ning terining g'ovaklari (porelar)da to'planishi natijasida yuzaga keladi. Shu bilan birga, *Propionibacterium acnes* nomli bakteriya ortiqcha yog'li terida ko'payib, terining yallig'lanishiga olib keladi. Akne turli xil shakllarda bo'lishi mumkin: qora dog'lar, oq dog'lar, yallig'langan pufakchalar (papulalar), chandiqlar (pustulalar), kistalar va nodular [4,5].


Mamlakatimiz farmatsevtika sanoatini rivojlantirish hamda aholining arzon va yuqori sifatli dori vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilash maqsadida mahalliy xom ashyolar asosida ishlab chiqarilayotgan dori preparatlari assortimenti kengaytirilmoqda. Ayniqsa, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simliklardan tayyorlangan dori vositalarining ahamiyati ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika sohasida dorivor o'simliklar asosida yangi preparatlar ishlab chiqarish va ularning samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarining assortimentini o'rganish, ularning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish va sifat ko'rsatkichlarini baholash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida 2020-2024 yillar davomida yallig'lanishga qarshi dorivor o'simliklar asosida ishlab chiqarilgan dori vositalarining tarkibi, assortimenti va farmatsevtika bozoridagi o'rni o'rganiladi. Tadqiqot natijalari asosida ushbu dori vositalari assortimentini yanada kengaytirish va sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

USULLARI. Yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori turlari O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozoridagi holatini o'rganish uchun kontent tahlil usuli qo'llanildi. Buning uchun Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrining 2020-2024 yillar bo'yicha ma'lumotlari tahlil qilindi.

NATIJALAR. Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrining 2024 yili bo'yicha o'rganish jarayonida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalarining umumiy miqdori (9530 pozitsiya) ning 1,20 % (114 ta preparat) yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simlik


xom ashyolari asosidagi dori preparatlari ulushiga to'g'ri kelishi aniqlandi. Yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarini ishlab chiqariladigan dori shakllariga bo'lib o'rganilganda, quyidagi natijalar olindi. Olingan natijalar 1- rasmda keltirildi.



1-rasm. Tayyor dori vositalari orasidagi yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega o'simlik xom ashyosi asosidagi preparatlarning ulushi.

Quyidagi diagrammada dori shakllari tahlil qilingan bo'lib, ularning katta qismini yumshoq dori shakllari o'z ichiga oladi. Umumiy hisobda 16,2% krem dori shakli, 21,4% surtma, 23,3% gel, 0,4% kapsula, 14% in'yeksion eritmalar, 4,5% shamcha, 3,4% nastoyka, 5,3% sprej va 11,7% tabletkka dori shakli tasvirlangan. Lekin mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar orasida yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega bo'lgan o'simlik xom ashyolari asosidagi yumshoq dori shakllarni deyarli uchratmaymiz ya'ni ular MDH davlatlari korxonalarini, hamda Xorijiy davlatlar tomonidan ishlab chiqarilgan. Shundan krem dori shaklining 93% Xorijiy davlatlar korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan. Shundan qolgan 7% esa MDH davlatlari korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan esa in'yeksion eritmalar hamda shamcha dori shakllarini ko'rish mumkin.

Dastlabki bosqichda o'rganilayotgan assortimentning 2020-2024 yillardagi tadqiqot davrida o'zgarish dinamikasi o'rganildi. Buning uchun Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrining 2020-2024 yillar bo'yicha ma'lumotlari tahlil qilindi. Olingan natijalar 2-rasmda keltirildi.



2-rasm. Oxirgi 5 yil ichida davlat ro'yxatidan o'tgan yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega o'simlik xom ashyosi asosidagi dori vositalarining miqdoriy tahlili.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki oxirgi 5 yil ichida davlat ro'yxatidan o'tgan yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega mahalliy dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarining miqdori so'nggi 5 yil ichida 84 tadan 114 taga ko'paygan, shundan mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ro'yhatdan o'tgan dori vositalari 49,3% dan 18,4% ga kamaygan. Keyingi o'rinda MDH davlatlari korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan dori vositalari 4,76% dan 40,5% ga ko'paygan. Keyingi o'rinda xorijiy korxonalar tomonidan ro'yxatga olingan dori vositalari 3,7% dan 37% gacha ko'paygan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan dori vositalari miqdor jihatidan kamaygan.

Olingan natijalarni inobatga olib, mahalliy yallig'lanishga qarshi dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarini assortimentini kengaytirish, takomillashtirish va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb belgilandi:

-preparatlarning ko'rsatkichi bo'yicha: import o'rnini bosuvchi yuqori talabga ega bo'lgan, yallig'lanishga qarshi dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarini va dori shakllarini turini kengaytirish lozim;

- dori shakllari bo'yicha: dori vositalarning dori shakli turlarini o'rganish natijasida 266 ta dori vositalar pozitsiyasidan 62 tasi gel dori shakli, 57 ta surtma, 43 ta krem, 37 ta infuziya uchun eritmalar, 31 ta tabletkalar to'g'ri kelishi aniqlangan. Shuningdek, 14 ta sprej, 12 ta shamcha, 9 ta nastoyka va 1 ta kapsula dori vositalar pozitsiyasiga to'g'ri keldi. Shundan kelib chiqib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan yallig'lanishga qarshi o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarining dori shakllarining assortimentini kengaytirish lozim.



MUHOKAMA. So'ngi yillarda mahalliy yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarga talab ortganligi, lekin ularning assortimenti kamayganligi aniqlandi. Aholi talabini qondirish maqsadida yallig'lanishga qarshi dorivor o'simlik xom ashyosi asosidagi dori vositalari MDH hamda xorijiy davlatlardan import qilinayotganligi aniqlandi. Shuningdek, yallig'lanishga qarshi dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalarning tizimli kontent tahlili assortimentning miqdori va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkazilib, bir qancha natijalarga ega bo'ldik. Bunda dori vositalarning dori shakli turlarini o'rganish natijasida 266 ta dori vositalar pozitsiyasidan 62 tasi gel dori shakli, 57 ta surtma, 43 ta krem, 37 ta infuziya uchun eritmalar, 31 ta tabletkalar, 14 ta sprej, 12 ta shamcha, 9 ta nastoyka va 1 ta kapsula dori vositalar pozitsiyasiga to'g'ri kelishi aniqlangan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarda yumshoq dori shakllarini deyarli uchratmaymiz, ular faqat MDH va xorijiy davlatlardan import qilinadi. Kremlarning 93% xorijiy, 7% MDH davlatlari mahsuloti bo'lsa, gellarning 95% dan ortig'i xorijdan import qilinadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar asosan tabletkalar va inyeksion eritmalar ishlab chiqaradi. Shundan kelib chiqib, yallig'lanishga qarshi dorivor o'simlik xom ashyolari asosidagi dori vositalar assortimentini kengaytirish, yumshoq dori shakllarini ishlab chiqarish maqsadga muvofiq.

References:

1. "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2016-yil 4-yanvardagi O'RQ-399-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chota-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 7-noyabr, UP-5229-son.
3. Fitzpatrick's Dermatology in General Medicine, 8th Edition, 2012.
4. Dermatology Essentials by M. B. Tosti, 2013.
5. Acne Vulgaris" in Dermatology by Jean L. Bologna, Julie V. Schaffer, Lonnie R. A. Tague, 2012.
6. O'zbekiston Respublikasi ro'yxatga olingan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrining 2020-2024 yillar.
7. M.S.Nazarqulov, G.U.Tillayeva, D.T.Gaibnazarova. Yallig'lanishga qarshi vositalarning kontent tahlili. / Farmatsevtika jurnal. – Toshkent. 2019. - №2.